

## TIL TA'LIMIDAGI MUAMMOLAR

*Toshkent viloyati Zangiota tumani*

*19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

*Akramova Gulchexra Orinbayevna.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tili ta'limi oldida turgan ba'zi muammolar haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, o'zbek tili, tushuncha, sof adabiy til, pedtexnologiya*

Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida" gi Qarori o'zbek tiliga bo'lgan ehtiromning yuksak namunasi bo'ldi. O'zbek tilini o'qitishda, u haqida o'quvchilarga tushuncha berishda ona tili fani o'qituvchilarining xizmatlari benihoya kattadir. Bugun ta'lim sohasida ona tili fanini o'qitishda ba'zi bir muammolar ham mavjudki, bular tilimizning sofligiga, milliyligiga, boyligiga putur yetkazayotgan holatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Natijada ushbu fanni o'qitishda, o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda ba'zi bir qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu holatlar esa, albatta, ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Quyidagilar bugungi kun ona tili fanini o'qitishda yechilishi kerak bo'lgan muammolar sanaladi:

O'qituvchilarning sof adabiy tilda so'zlashmasligi. Ha, aynan bugungi ta'lim tizimimizda shunday ona tili fanini o'rgatuvchi o'qituvchilar borki, o'zlari ona tilimizda sof tarzda so'zlashishni bilmay turib, o'quvchilarga ta'lim bermoqda. Tilimizning sofligiga e'tibor bermagan, kerak bo'lganda o'zbek tilidagi muqobil so'zlarni topa olmasdan, uning o'rnida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni ishlatadigan, tilimizni hurmatsizlantiradigan o'qituvchilar qanday shogird tayyorlashlari mumkin?

Ona tili darslarimizning o'zbek tilida emas, boshqa tillarda o'tilishi. Bu holatni shahar maktablaridagi sinflarda ko'p uchratamiz. Samarqandda ona tili dars jarayonida

tojik tilidan, Toshkentda rus tilidan foydalanib o'quvchilarga o'z ona tilimizni o'rgatayotgan o'qituvchilar ham uchrab turibdi. Bu holatni, afsuski, boshqa viloyatlarda ham uchratishimiz kishi dilini xira torttiradi. Axir, o'quvchilar o'z ona tilisi - davlat tilini boshqa tillarda qanday qilib o'rganadi? Bir jumlaning o'zbek tilida to'g'ri tushuntira olmaydigan yoshlarning o'sha fikrini to'g'ri va ravon yozib bera olmasligi - bu boshqa masala. Yangi yaratilayotgan darsliklardagi berilgan lug'at so'zlar asosida biror bir qo'llanmaning yaratilmaganligi. Bu hozirgi maktablardagi eng dolzarb masala sanaladi. 2019-2020- o'quv yili boshida 8-9-sinflarning darsliklari yangilandi. Yangilangan ona tili darsligiga e'tibor bersak, ko'plab matnlar va o'sha matnlar asosidagi lug'atlar berilganligini ko'ramiz. Ba'zi lug'atdagi so'zlarni o'zimiz zo'rg'a topib, o'quvchilarga yetkazamiz. Lekin o'quvchilar bu lug'at so'zlarning ma'nosini qayerdan topishadi? Ularning izlanishlari uchun ham biror bir darsliklarga asoslangan lug'atlar jamlanmasini yaratish vaqti kelmadimikan?

Pedagog kadrlarning an'anaviy usuldagi darslardan voz kecholmaganliklari. Bu muammoni istagan ta'lim muassasasida uchratishimiz mumkin. O'qituvchilar hali hamon ko'chirib yozish, mashq bajarish, savollarga javob berish kabi usullardan foydalangan holda dars o'tmoqdalar. Ko'pchilik o'qituvchilar kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilmasligi yoki maktablarda darsni zamonaviy usulda o'tishning iloji yo'qligi uchun ham an'anaviy usullardan foydalanib kelmoqdalar. Sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi ham an'anaviy usulning umrini uzaytirmoqda. Bir xil vazifa bajaradigan, har darsda savolga javobni kitobdan bir amallab o'qib beradigan, mashqni ko'chirib kelganligi uchun baho oladigan o'quvchilarning soni ortib bormoqda. O'quvchilarni darslarga qiziqitira olmay qoldik so'nggi yillarda. O'quvchilarni darsga jalb qilish uchun ham zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanishimiz kerakligi bugungi kun ta'lim tizimimizning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarga yechim topilmas ekan, ona tilimizning sofliqini saqlab qolishimiz, tilimizga bo'lgan faxr - iftixor tuyg'ularini o'quvchilar ongiga singdirishimiz qiyin bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
3. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. *Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions*, 271-273.
4. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 7(81), 250-257.
5. Rahmatilla, N. (2020). Abdulla Oripov dostonlarida milliy qadriyatlar talqini. *Til va adabiyot ta'limi*, (7), 60-61.